



BARGLARNING DOG'LANISH KASALLIKLARI

Sobirjonova Ximoyatxon Xabibullo qizi

Siddiqova Nodira Kamildjanovna

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotekhnologiyalar instituti

БОЛЕЗНИ ПЯТНИСТОСТИ ЛИСТЬЕВ

Собиржонова Химоятхон Хабибулло кизи

Сиддикова Нодира Камилджановна

Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий

LEAF SPOT DISEASES

Sobirzhonova Khimoyatkxon Khabibullo kizi

Siddikova Nodira Kamiljanovna

Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology

Аннотация:

Maqolada har bir mamlakatlarda joylashagan o'rmon maydonlarini katta ahamiyatga ega ekanligi bayon qilingan. O'rmonlar halq mulki bo'lishi bilan bitmas tuganmas boylik, havo musafoligi, xom-ashyo va boshqalar va ularni himoya qilish xammani vazifasi. Lekin antropogen va biotik tomonlardan o'rmonlarga zarar yetkazilmoqda, ayniqsa iqlim o'zgarishi tabiatdagi organizmlarni o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Maqolada mazarali daraxtlarni kasalliklari va ularni bartaraf qilish usullari yoritilgan.

Калит сўзилар: O'rmonzorlar, qishloq aholisi, o'simliklar, garimsel, qurg'oqchilik, sklerotik va nekrotik., Rhitisma punctatum Fr., Rhitisma acerinum (Pers.) Fr., Rhytisma salicina (Pers.) Fr., Melasmia salicinum Lev., Marssonina juglandis (Lib) P.

Аннотация:

В статье описывается большое значение лесных площадей в каждой стране. Поскольку леса являются собственностью народа, они являются



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

неисчерпаемым богатством, качеством воздуха, сырьем и т. д., и их охрана является общей задачей. Однако леса подвергаются повреждению антропогенными и биотическими факторами, особенно изменением климата, что вызывает изменения организмов в природе. В статье рассматриваются болезни лиственных деревьев и методы их устранения.

Ключевые слова: Леса, сельское население, растения, засуха, склеротические и некротические., *Rhitisma punctatum* Fr., *Rhitisma acerinum* (Pers.) Fr., *Rhitisma salicina* (Pers.) Fr., *Melasmia salicinum* Lev., *Marssonina juglandis* (Lib) P.

Annotation:

The article describes the great importance of forest areas in each country. Since forests are the property of the people, they are inexhaustible wealth, air quality, raw materials, etc., and their protection is a common task. However, forests are subject to damage by anthropogenic and biotic factors, especially climate change, which causes changes in organisms in nature. The article discusses deciduous tree diseases and methods for eliminating them.

Keywords: Forests, rural population, plants, drought, sclerotic and necrotic., *Rhitisma punctatum* Fr., *Rhitisma acerinum* (Pers.) Fr., *Rhitisma salicina* (Pers.) Fr., *Melasmia salicinum* Lev., *Marssonina juglandis* (Lib) P.

Mamlakatimizning go‘zalligini uning chiroyli, betakror tog‘ manzaralarisiz va bepoyon cho‘llarisiz tasavvur qilish qiyin. Respublikamizning tabiiy o‘rmonzorlari asosan tog‘li va cho‘l mintaqalarida joylashgan. O‘rmonlarda o‘sayotgan yovvoyi va mevali daraxtlar, butalar, o‘t-o‘lanlar, dorivor va manzarali o‘simliklar, gullar, o‘rmon hayvonlari, qushlar, asalarilar, turli hasharotlar, zamburug‘, bakteriya, virus va boshqa mikroorganizmlar guruhlari o‘rmonzorlarning biotsenozini tashkil qiladi. O‘rmonzorlar vatanimizning asosiy boyliklaridan biridir: daraxtlar sifatli qurilish materiallaridir;



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

qishloq aholisi uchun zarur yoqilg'i (o'tin) sifatida ishlatiladi; daraxtlar respublikamiz aholisini mevalari bilan ta'minlaydi;

ko'pchilik o'simliklardan har xil kasalliklarga qarshi dori-darmonlar tayyorlanadi; aholi tomonidan sevib iste'mol qilinadigan zamburug' turlari ham bevosita o'rmonzorlarda o'sadi;

chorvachilik hamda asalarichilikni rivojlantirishda o'rmonzorlarning ahamiyati beqiyosdir;

va nihoyat o'rmonzorlar atrofida sog'lomlashtirish majmualari, dam olish maskanlari va oromgohlar yildan-yilga ko'paymoqda chunki o'rmon-zorlarda o'sayotgan o'simliklar, daraxtlar insonlar salomatligi uchun zarur bo'lgan kislorodni yetkazib beradi. [3,5]

O'rmonzorlarning ahamiyati faqat yuqorida ko'rsatib o'tilgan omillar bilan cheklanib qolmaydi, balki ularning boshqa juda ko'p ijobiy tomonlari ham mavjud. Ular asosan qishloq xo'jalik o'simliklarini va atrof-muhitni har xil tabiiy ofatlardan saqlab qolishda hamda bu ofatlarning salbiy ta'sirlarini kamaytirishda katta ahamiyatga ega. Jumladan, qum ko'chishi, issiq garimsellar va sellar kelishi, qurg'oqchiliklar, tuproq eroziyasi va hokazolarni kamaytirishda bevosita ishtirok etadi.

Dog'lanish eng ko'p tarqalgan kasallik turidir. Uni har xil fitopatogen zamburug', bakteriya va viruslar qo'zg'atadi, tashqi muhitning noqulay sharoiti ta'sirida ham o'simliklarda har xil dog'lar paydo bo'ladi.

Bunday kasallik bilan kasallangan o'simliklarning to'qimalari nobud bo'ladi, ranggi va tuzilishi o'zgaradi. Natijada barglarda har xil rang, shakl va kattalikdagi dog'lar hosil bo'ladi. Dog'lar odatda vegetatsiya davrining ikkinchi yarmida ko'rinadi. Shuning uchun kasallanish darajasi kam bo'lsa, ular o'simlikka uncha zarar yetkazmaydi. Kasallanish darajasi yuqori bo'lganda o'simliklarning fiziologik jarayoni buziladi va barglar qurib, bevaqt to'kilib ketadi. Bu hodisa o'simliklarning o'sishini sekinlashtiradi, ko'rinishini yomonlashtiradi, sovuqqa chidamliligini pasaytiradi, noqulay ob-havo sharoitida o'simliklarning nobud bo'lishga olib keladi. Dog'lanish kasalligi o'simliklarning har xil yoshli, ayniqsa yosh daraxtlarni (ko'chat-zorda) kasallantiradi. U nihollar va o'rmondagi daraxtlarda ham ko'p



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

uchraydi. Dog‘lanish kasalligi hosil bo‘lishiga qarab 2 guruhga bo‘linadi: sklerotik va nekrotik.[3,5]

Sklerotik (shishgan) dog‘larni ayrim xaltali zamburug‘lar qo‘zg‘atadi. Kasallangan joylarda zamburug‘lar ta’sirida yo‘g‘onlashish paydo bo‘ladi. Bu yo‘g‘onlashish bargning tepasida hosil bo‘ladi. U zamburug‘larning stromasi yoki sklerotsiyalaridan iboratdir. Ular har xil rangli shaklli bo‘ladi. Bunday dog‘lar asosan zarang, tol va ilma daraxtlarida kuzatiladi.

Nekrotik (yassi) dog‘larni asosan deysteromitsetlar, shuningdek xaltali zamburug‘larning konidial davri qo‘zg‘atadi. Zamburug‘ barg to‘qimasida rivojlanadi va spora hosil qiladi. Bargning zamburug‘ rivojlangan joyi nobud bo‘ladi va to‘kilib ketadi, natijada teshikli dog‘lanish yuzaga keladi.[2]

Zarang barglarining qora nuqtasimon dog‘lanish kasalligi.

Kasallikqo‘zg‘atuvchisi – *Rhitisma punctatum* Fr. Kuzda barglarda mayda yaltiroq qora dog‘lar hosil bo‘ladi. Dog‘lar zamburug‘ning stromasidir. Ularning ichida apotesiyalar joylashadi. Apotesiyalar keyingi yil bahorda pishib yetiladi. Apotesiyalarda to‘qmoqsimon (120-130x9-10 mkm) xaltalar hosil bo‘ladi. Sporalari ipsimon, rangsiz, o‘lchami 60-80x1,5-3 mkm. Pishganda 2-3 ta to‘siq hosil bo‘ladi. Yozda sariq dog‘lar ustida konidiylar (6-1 mkm) paydo bo‘ladi. Bahorda xaltalar orqali ko‘payadi. Kasallik novdalarning o‘ssishi va manzaraliligini pasaytiradi. Bog‘ va ko‘chatzorlarga o‘rtacha zarar yetkazadi. Konidial davri – *Melasmia acerina* Lev. Piknidiyalari keng yoyilgan, notekis, qora, yassi stromalarda joylashgan. Stilosporalari bir hujayrali, silindrsimon, biroz egilgan, o‘lchami 5,5-9x1 mkm, rangsiz. Mazkur zamburug‘ *Acer turkestanicum* da uchraydi.[4,5]

Zarang daraxti barglarining qora dog‘lanish kasalligi.

Kasallik qo‘zg‘atuvchisi – *Rhitisma acerinum* (Pers.) Fr. Yoz boshida barglarda sariq dog‘lar paydo bo‘ladi. Keyinchalik ular ustida burchaksimon, sekin-asta birbiriga qo‘shilib ketuvchi qora nuqtalar hosil bo‘ladi. Kuz boshlarida kasallangan joylarda yelimga o‘xshash, 1-1,5 sm diametrli sariq xalqali qora dog‘lar hosil bo‘ladi. Dog‘ning o‘rta qismi qora, yaltiroq, biroz shishgan, ularda konidiyalalar hosil bo‘ladi. Qora dog‘ning o‘rtasida kuzda zamburug‘ni meva tanasi – apotesiyalar joylashadi. Ular kelgusi yil bahorda yetiladi. Apotesiyalar ichida to‘qmoqsimon xaltachalar hosil bo‘ladi va



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

bahorda apotesiylardagi teshikchalardan yuqoriga chiqishadi. Xaltachalari 120-130x9-10 mkm. Xaltachasporalari 60-80x1,5-3 mkm.[1,3]

Kasallik shoxlarning o'sishi va manzaraliligi pasayadi. Kasallanish yoz boshlarida xaltasporalar orqali amalga oshadi. Kasallik ko'chatzorlarda, bog'larda, park va xiyobonlarda keng tarqalgan, ammo uning zarari ko'chatzorlarda ayniqsa sezilarli bo'ladi, bunda ular ekish materialining sifatini pasaytiradi. Zamburug' *Acer pubescens*, *A. tyrkestanica* larda ko'p uchraydi.

Tol daraxtining qora dog'lanish kasalligi. Kasallik qo'zg'atuvchisi – *Rhytisma salicina* (Pers.) Fr. Konidial davri – *Melasmia salicinum* Lev. Barglarning ustki qismida yoz oxirida yaltiroq qora dog'lar hosil bo'ladi. Kuzda zamburug' stromasi ichida apotesiylar paydo bo'ladi. Ular ichida bahorda uzun ipsimon parafizali xaltachalar pishib yetiladi (120-150x10-15). Xaltasporalari ipsimon, bir hujayrali (60 – 90 x 3 – 5 mkm). Zararlanish bahorda xaltasporalari orqali amalga oshadi. Kasallik ko'chatzorlarga katta zarar yetkazadi.

Konidial davri - *Melasmia salicinum* Lev. Piknidalari dumaloq, qavariq biroz to'lqinga – o'xshash qora, yassi stromalarda joylashadi. Stilosporalari bir hujayrali, silindrsimon, o'lchami 4,5-6x1 mkm, rangsiz. Mazkur zamburug' *Salix wilhelmsiana* Biel. da uchraydi.[4,2]

Yong'oqning qo'ng'ir dog'lanish kasalligi. Kasallik qo'zg'atuvchisi Marssonina juglandis (Lib) P. Magn – Marssoninoz, xaltali davri – *Gnomonia leptostylla* (Fr.) Wint. Zamburug' mevdan tashqari, barg, bargbandi va yosh novdalarni ham kasallantiradi.

Yosh barglarda katta bo'lmagan qo'ng'ir dog'lar hosil bo'ladi, keyinchalik ular kattalashadi, 10-15 kundan so'ng ular ustida konsentrik shaklda joylashgan, ko'p miqdordagi konidiyalari bilan qora lojalar hosil bo'ladi. Konidiyalar ikki tipda bo'ladi: makrokonidiyalar – notekis o'roqsimon, sezilarsiz to'siqchali (16-30x3-4 mkm) va mikrokonidiya – tayoqchasimon, to'g'ri yoki biroz egilgan (6-12x1,5 mkm).[2,3]

Bu yil hosil bo'lgan shoxchalarda va barg bandlarida qo'ng'ir biroz chuqurlashgan dog'lar hosil bo'ladi. Kasallanish kuchli bo'lganda shoxlari qiyshayib ketadi va to'qimalari nobud bo'ladi. Birinchi kasallanish xaltasporalari orqali amalga oshadi. Xaltasporalari to'kilgan barglar ichida zamburug'ning meva tanasida bahorda pishib



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

yetiladi va daraxtlarni kasallantiradi. Yoz davomida o'simlikning zararlangan a'zolarida hosil bo'lgan konidiyalar orqali kasallik tarqalaveradi. Kasallik jiddiy xavf tug'diradi. Chunki kasallik ta'sirida mevalar va barglar to'kiladi. O'simlik sovuqqa va boshqa kasalliklarga chidamsiz bo'lib qoladi. Gul kurtaklarining hosil bo'lishi yomonlashadi. Shuning uchun yong'og'ining kelgusi yilgi hosili kamayadi. [2,3]

Ba'zi yillarda kasallik epifitotiya darajasiga yetadi. Qishlov davriga qarshi erta bahorda daraxtlar va o'simlik qoldiqlariga 3-4 % li bordos suyuqligi purkaladi. Vegetatsiya davrida 1 % li bordos suyuqligi bilan 1-2 marta ishlov berish takrorlanadi. O'simlik qoldiqlarini yig'ib, yoqib tashlash va tuproqni yuzaki yumshatish hamda o'g'itlar solish ham yaxshi natija beradi.

O'rmonlarni Yer sayyorasining o'pkasi deb atashadi va ularsiz hayot yo'qligini aytishadi. Aslida ham shundaymikan?

O'rmonlar ozuqaviy qiymatga ega mahsulotlar bilan to'lgan. Ularga nafaqat meva va yong'oqlar, balki oqsil va minerallar manbai — hasharotlar ham kiradi. Ozuqa o'rmon jonzoqlariga quvvat berib, ularni to'ydiradi, shuningdek millionlab odamlar salomatligini qo'llab-quvvatlaydi.[3]

Har yili Yerdagi o'rmonlar yuz millionga yaqin daraxtni yo'qotadi. Bir yilda bitta daraxt deyarli 100 kubometr kislorod beradi. Maxagoni — dunyodagi eng qimmat yog'och turi. Ha, o'rmonlarsiz Yerdagi hayot mavjud bo'lmaydi.

BIBLOGRAFIK RO'YXAT

1. Стороженко В.Г. Формирование комплексов дереворазрушающих грибов в коренных лесах Грибы и водоросли в биоценозах 2006, стр. 154-155
2. Литовка Ю.А. Видовой состав грибов рода *Fusarium* и их роль в патогенезе сеянцев хвойных в лесопитомниках Средней Сибири // Автореф. дисс. к. б. н.— Красноярск.: Институт леса СО РАН, 2003-18 с.
3. Сиддикова Н. Болезни хвойных растений в Андижанской области Узбекистана. Наука и мир. Международный научный журнал. Россия. № 5(69). 2019 год. том 2 .79-81 стр.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

-
4. Сиддикова Н.К., Мирзайтова М.К., Абдуллаева Г.Д. Fusarium oxysporum и борьбы с ними. Весник, наука и образование. Российский научно-методический журнал. № 24 (78). 2019 год. Част 3. 10-13 стр.
 5. Камилов Ш.Г., Сиддикова Н.К. Защита сеянцев хвойных культур от корневой гнили. Защита растений и карантин. Международный научный журнал. № 5. 17-19 стр. 2020 год. Россия.